

Efimizmlar tahlili

Iskandarova Sevinch Maqsud qizi¹, Erbutayeva Shalola²

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek tilining naqadar boy til ekanligini korsatib bera oladigan sozlar, ya'ni efimizmlar tahlili haqida gap boradi. O'zbek adabiyotining yetuk namoyandalaridan biri hisoblangan Abdulla Qodiriy asarlarida uchragan koplal efimizmlar tahlilini korib chiqamiz. Asarda qollanilgan har bir efimizm asarning ta'sirchanligini kuchaytirib beradi, asar qahramonlarining nutq madaniyatini yaqqol tarzda korsatib berishga xizmat qiladi.

Kalit sozlar: Efimizm tushunchasi desfimizm tushunchasi asarlarda uchragan efimizmlar.

Efimizm yunoncha yumshoq ifodalash degan ma'noni anglatadi. Efimizm insonlarni nutq jarayonida aytilishi noqulay qo'pol yoki o'rinsiz tuyulgan so'z yoki iboralarning ma'nodoshi sifatida qo'llanilgan so'zlardir. Efimizm noqulay vaziyatlarni aytishdan uzoqlashish, shunday hodisani salbiy ta'sirini kamaytirish uchun xizmat qiladi. Efimizmlar insonning or-nomusiga tegadigan yoki o'ziga nisbatan hurmatsizlik ifodaalaydigan shuningdek to'g'ridan to'g'ri aytilishi kerak bo'lmagan sirli voqealarni yashirish maqsadida foydalaniladi. Masalan, "nogiron" so'zini oladigan bo'lsak bu so'z insonning dilini xira qilishi mumkin. Shu tufayli bu sozni o'rniga uning yumshoq shakllaridan, ehtiyojmand, imkoniyati cheklangan kabi koplal ma'nodoshlaridan foydalanish afzalroq. Efimizm xalqlarning urf-odatlarini, madaniy saviyasini darajasi shu bilan bir qatorda etnik me'yorlarining rivojlanishi bilan bog'liq hisoblanadi. Til taraqqiy etishi bilan birga uning efimistik qatlami ham rivojlanadi. Nutqda muomala madaniyatiga rioya qilish uchun efimizmlardan foydalanamiz. Efimizmlarning tilda qollanilishi nafaqat nutqimizni chiroyli qilishga balki tilimizning keng imkoniyatlarini ko'rsatishga vosita hamdir. Tilimizda Efimizm tushunchasiga teskari bo'lgan desfimizm tushunchasi ham mavjud. Desfimizm tushunchasi biror bir hodisani yomon tarafdin ya'ni salbiy sozlar bilan, shaxsni kamsitish uni haqorat qilish uchun aytiladigan so'zlar qatlami desfimizm hisoblanadi. Desfimizmlar odatda, nutq qaratilgan shaxsga zarba berish uchun yokki hafa qilish uchun qollanilsada bazan bir xil guruh vakillari ichidagi yaqinlik belgisi sifatida ishlatiladi.

Hozirgi paytda kopchilik yosh guruhlar o'rtasida desfimizmlardan ko'p foydalanish "zamonaviylashmoqda". Bu esa yosh avlodlar orasida axloqsizlik madaniyatsizlikning yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda.

G'arb psixologi Albert Banduraning ta'kidlashicha, "odamlar ijtimoiy muhitda salbiy tilni o'rganib undan zo'ravonlik yoki norozilik korsatish uchun foydalanishi mumkin". Yoshlar orasida faollashgan bu kabi desfimizmlar shunchaki hazil ma'nosida ishlatilsada lekin bu so'zlarni eshitmagan yoki nutqda foydalanmagan bolalar uchun salbiy ta'sir etishi mumkin. Shuning uchun bu sozlarni ham oz o'rnida ishlatish lozim.

O'zbek adabiyotining buyuk ustuni bo'lgan Abdulla Qodiriy o'zbek tili imkoniyatlari qanchalik keng ekanligini o'z asarlarida aks ettirgan va kitobxonga asar mohiyatini yanada aniqroq yetkazib berish uchun bu ikki tushunchadan o'z o'rnida foydalana bilgan. Adibning "O'tkan kunlar" asarida efimizm va desfimizm so'zlariga ko'p marotaba duch kelamiz. Misol uchun, "Sizga iffatlik va sevimlik rafiqa bilan qutidordek qayin ota, Hasanliga kelin". (25-b.) bu jumlada qollanilishi kerak bolgan xotin sozi bir muncha qopol bolganligi sababli "rafiqa" so'zi qo'llangan. Buni esa nutqda madaniyatning bir ko'rinishi desak ham bo'ladi. Xuddi shunday yana bir gapda "Agar shular bo'lmaschi kishi allaqachon

¹ O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti Filologiya fakulteti 2-bosqich talabasi

² Ilmiy rahbar



dunyodan chiqib ketadi”(49-b.)Bunda ijodkor “o’lmoq”sozi o’rnida “dunyodan chiqmoq”iborasini qo’llab hodisani biroz yumshoqroq tarzda bayon qilish uchun foydalangan.

“Manimcha, o’risning bizdan yuqoridaligi uning ittifoqidan bo’lsa kerak-dedi Otabek.” Yozuvchi ushbu jumla,”o’ris” sozi bilan asar qahramoni aytayotgan dushmaniga nisbatan o’zining nafratini yanada kuchaytirib ko’rsatish uchun desfimik vositani qo’llash afzalroq deb bilgan.”Shu uchun ikki kundash oldigakirishdan qo’rqib yana to’g’risi uning sovuq aftini ko’rishdan jirkanib havlining chet-chetida yurarlar.(38)”Sovuq aft” birikmasi desfimik vosita bolib kelib, qahramonning kundashini yomon ko’rishini ko’rsatib o’tishga xizmat qilgan.

Shunga o’xshash so’zlarni Abdulla Qodiriy boshqa asarlarida ham mahorat bilan qo’llagan va bu esa ijodkorning so’z boyligi ko’pligidan,mahoratidan darak beradi.

Efimizm va desfimizm so’zlar tilning ajralmas bo’lagi bo’lib ular vositasida ma’lum jamiyatning qadriyati,dunyo qarashi va madaniyati ham aks etadi.Shuni ham aytib o’tish kerakki, bu so’zlardan o’rinli va me’yorida foydalanish muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O’zbek tilida efimizm va desfimizm Xurshida Qodirova Toshkent-2022
2. кебир ленинка.ру
3. ”O’tkan kunlar” Abdulla Qodiriy Yangi asr avlodi Toshkent-2021
4. uz.wikipedia

